TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI

Darxonboyeva Fotima Boxodirjon qizi
Talaba, Guliston davlat pedagogika instituti
e-mail: fotimadarxonboyeva1@gmail.com
Jo‘raqo‘ziyeva Mohinur Muzaffar qizi
Talaba, Guliston davlat pedagogika instituti
e-mail: mohinurjoraqoziyeva@gmail.com
Tursunqulova Yulduz Bahodir qizi
Talaba, Guliston davlat pedagogika instituti
e-mail: yulduztursunqulova6@gmail.com

Anotatsiya: Hozirgi globallashuv va raqamli texnologiyalar asrida tilshunoslik fanining o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Til insoniyatning asosiy aloqa vositasi, milliy o‘zlik va madaniyatning ajralmas qismidir. Shu sababli tilshunoslik nafaqat tilning ichki tuzilishini, balki uning jamiyat, tafakkur, madaniyat va texnologiya bilan o‘zaro aloqasini ham chuqur o‘rganadi. So‘nggi yillarda til tizimidagi o‘zgarishlar, yangi axborot texnologiyalarining ta’siri, tillarning yo‘qolib borishi, tarjima va nutq madaniyati bilan bog‘liq masalalar tilshunoslik oldida yangi ilmiy vazifalarni qo‘ymoqda.

Kalit So‘zlar: Tilshunoslik, aloqa vositalari, jamiyat, tafakkur, madaniyat, texnologiya, grammatik kompetensiya, kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, biling shaxslar.

Abstract: In the present era of globalization and digital technologies, the role and importance of linguistics are steadily increasing. Language is the main means of human communication, as well as an integral part of national identity and culture. Therefore, linguistics studies not only the internal structure of language, but also its deep interconnection with society, thinking, culture, and technology. In recent years, changes in the language system, the influence of new information technologies, the disappearance of languages, and issues related to translation and speech culture have

Key words: Linguistics, means of communication, society, thinking, culture, technology, grammatical competence, computer linguistics, corpus linguistics, bilingual individuals.

Tilshunoslikning keng tarqalgan muammolarini o‘rganish - bu til taraqqiyotining hozirgi bosqichini tahlil qilish, duch kelgan muammolarga yechim topish va milliy tilning nufuzini yanada mustahkamlash uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shu uchun ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikning asosiy dolzarb yo‘nalishlari va ularning ilmiy ahamiyati yoritiladi.

Tilshunoslikning dolzarb muammolarini o‘rganishda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari muhim o‘rin tutadi. Tilning ijtimoiy, madaniy va psixologik mohiyatini tahlil qilishda N. Xomskiy, F. de Sossyur, E. Sapir, B. Uorf kabi tilshunoslarning asarlari asosiy nazariy manba sifatida xizmat qiladi. F. de Sossyur tilni ijtimoiy hodisa deb qarab, uni nutqdan farqlagan bo‘lsa, N. Xomskiy tilning ichki tuzilishi, grammatik kompetensiya va inson tafakkuri bilan bog‘liqligini tahlil qilgan.

O‘zbek tilshunosligida esa N. Mahmudov, A. Nurmonov, M. Jo‘rayev, Sh. Safarov kabi olimlar tilning jamiyatdagi o‘rni, normativ masalalar, nutq madaniyati hamda ikki tillilik

muammolarini keng o‘rganib kelmoqda. Xususan, A. Nurmonov o‘zbek tili sintaksisida mantiqiy va kommunikativ jihatlarning uyg‘unligini tahlil qilgan bo‘lsa, N. Mahmudov va A. Madvaliyevlar zamonaviy o‘zbek tilining rivojlanish istiqbollari va yangi til birliklarining shakllanishi haqida ilmiy qarashlar bildirganlar.

So‘nggi yillarda kompyuter lingvistikasi, korpus lingvistikasi, kognitiv tilshunoslik kabi yangi yo‘nalishlarning paydo bo‘lishi tilshunoslikda yangicha yondashuvlarni shakllantirmoqda. Masalan, E. Kubryakova va D. Crystal asarlarida tilni sun’iy intellekt tizimlariga tatbiq etish masalalari, til o‘rganishda texnologiyaning ahamiyati yoritilgan. Shu bilan birga, internet tilshunosligi va sotsiolingvistika yo‘nalishidagi izlanishlar tildagi zamonaviy o‘zgarishlarni aniqlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, ilmiy adabiyotlarda tilshunoslikning dolzarb muammolari ko‘p qirrali yondashuvlar asosida o‘rganilmoqda: tilning ijtimoiy mohiyati, globalizatsiya sharoitida tillarning saqlanishi, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda texnologiyalar bilan uyg‘unlashuvi zamonaviy tadqiqotlarning markazida turibdi.Hozirgi davrda tilshunoslik fanida bir qator dolzarb muammolar mavjud bo‘lib, ular ilmiy tadqiqotlar markazida turadi.

Birinchidan, globalizatsiya va ommaviy madaniyat ta’sirida ko‘plab milliy tillar o‘z mavqeini yo‘qotish xavfi ostida qolmoqda. Ingliz tilining xalqaro miqyosda keng qo‘llanilishi natijasida kichik xalqlar tillari asta-sekin faol nutqdan siqib chiqmoqda, bu esa lingvistik xilma-xillikka jiddiy tahdid tug‘diradi.

Ikkinchidan, raqamli texnologiyalar va internet tarmog‘ining tez rivojlanishi til tizimida yangi so‘z va iboralar, qisqartmalar, shuningdek, tilning normativ qoidalaridan chetlanish holatlarini kuchaytirmoqda. Bu esa adabiy til me’yorlarini saqlash va nutq madaniyatini rivojlantirish masalasini murakkablashtirmoqda.

Uchinchidan, ko‘p tillilik va ikki tillilik jarayonlari tufayli tillar orasidagi aralashuv, ya’ni interferensiya kuchaymoqda. Bilingv shaxslar nutqida grammatik, leksik va fonetik xatoliklarning ko‘payishi tilning tabiiy tuzilishiga ta’sir ko‘rsatmoqda hamda ona tilining sof shaklini saqlashda muammolar keltirib chiqarmoqda.

Birinchi muammo - milliy tillarning yo‘qolish xavfi. Bu muammoni bartaraf etish uchun, avvalo, har bir millat o‘z tiliga nisbatan hurmat va mas’uliyatni oshirishi lozim. Davlat miqyosida milliy tilni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni kengaytirish, o‘quv muassasalarida tilni chuqur o‘qitish hamda ommaviy axborot vositalarida milliy tildagi kontentni ko‘paytirish zarur. Shu bilan birga, yosh avlodda o‘z ona tiliga muhabbatni kuchaytirish maqsadida adabiyot, teatr va madaniy tadbirlar orqali targ‘ibot olib borish muhim ahamiyatga ega.

Ikkinchi muammo - texnologiyalar ta’sirida til me’yorlarining buzilishi. Bu holatning oldini olish uchun raqamli platformalarda adabiy til me’yorlarini qo‘llash madaniyatini shakllantirish kerak. Internet lug‘atlari, til grammatikasi uchun mobil ilovalar va avtomatik tahrir dasturlarini yaratish orqali foydalanuvchilarga to‘g‘ri yozish va gapirishni o‘rgatish mumkin. Shuningdek, tilshunos olimlar va texnolog mutaxassislari hamkorligida elektron korpuslar, onlayn lug‘atlar va avtomatik tarjima tizimlarini takomillashtirish lozim.

Uchinchi muammo - ikki tillilik natijasida interferensiya kuchayishi.Bu jarayonni nazorat qilish uchun til o‘qitish metodikasini takomillashtirish muhim. Ona tili va chet tili o‘qituvchilari birgalikda o‘quvchilarda har ikki tilni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishi kerak. Shuningdek, televizion dasturlar, radio eshittirishlar va internetdagi kontentlarda ona tilining sof shaklini targ‘ib etish, til xatolarini ommaviy darajada tuzatish madaniyatini rivojlantirish samarali natija beradi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslik bugungi kunda insoniyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq fan sifatida yangi bosqichga ko‘tarildi. Globalizatsiya, texnologiyalar

rivoji va madaniyatlararo muloqotning kengayishi natijasida til tizimida ko‘plab o‘zgarishlar yuz bermoqda. Bu esa milliy tillarning saqlanishi, adabiy me’yorlarning barqarorligi va ikki tillilik muammolarini yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda.Tilshunoslikning asosiy vazifasi - bu muammolarga ilmiy asosda yondashish, tilning tabiiy rivojlanish qonuniyatlarini saqlab qolish hamda uni yangi sharoitlarga moslashtirishdan iborat hisoblanadi. Har bir inson o‘z tiliga e'tibor bilan qarab, uni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganar ekan, til na ham aloqa vositasi, balki millatning ma’naviy boyligi sifatida e'zozlanadi. Shunday qilib, tilshunoslikdagi dolzarb muammolarni o‘rganish va ularga yechim topish - bu nafaqat ilmiy, balki ijtimoiy-ma’naviy zarurat hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. De Sossyur F. “Umumiy tilshunoslik kursi”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2005.
2. Xomskiy N. “Til va tafakkur”. – Moskva: Progress, 1986.
3. Mahmudov N., Madvaliyev A. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.
4. Nurmonov A. “Til va nutq munosabatlari” // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. – 2014. – №3.
5. Safarov Sh. “Kognitiv tilshunoslik asoslari”. – Toshkent.